



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING RAQAMLI PLATFORMASI

Ochilov Laziz Siddiqovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. Telekommunikatsiya xizmatlari bozorida raqobatda kutilmagan tadbirni amalga oshirish natijasida biznes sohasida yangi rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Iste'molchilar va telekommunikatsion xizmat ko'rsatuvchilar orasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida raqamlashtirishning bugungi bosqichida xizmat ko'rsatuvchilarning xizmat ko'rsatish strategiyasini takomillashtirish va shuningdek marketing strategiyasini ishlab chiqishda asosan hozirgi kunda raqamli platformalardan keng foydalanilmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, marketing strategiyasi, portal, raqamli platforma, telekommunikatsiya xizmatlari.

ЦИФРОВАЯ ПЛАТФОРМА РАЗВИТИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Очилов Лазиз Сиддиқович

Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми

Аннотация. В результате реализации неожиданного события в условиях конкуренции на рынке телекоммуникационных услуг были показаны новые пути развития бизнеса. На современном этапе цифровизации отношений между потребителями и поставщиками телекоммуникационных услуг, основанных на рыночных принципах, цифровые платформы сейчас широко используются для совершенствования стратегии обслуживания поставщика услуг, а также для разработки маркетинговой стратегии.

Ключевые слова: цифровая экономика, телекоммуникации, маркетинговая стратегия, портал, цифровая платформа, телекоммуникационные услуги.

DIGITAL PLATFORM FOR THE DEVELOPMENT OF TELECOMMUNICATIONS SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY

Ochilov Laziz Siddiqovich

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khorezmi

Abstract. As a result of the implementation of an unexpected event in a competitive market for telecommunication services, new ways of business development were shown. At the present stage of digitalization of relations between consumers and providers of telecommunication services, based on market principles, digital platforms are now widely used to improve the service strategy of the service provider, as well as to develop a marketing strategy.

Key words: digital economy, telecommunications, marketing strategy, portal, digital platform, telecommunications services.

Kirish.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati an'anaviy savdo aloqalaridan uzoqqa chiqib ketishga ulgurdi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishning raqamli platformalarining paydo bo'lishi tufayli yuzma-yuz uchrashuvlarga bo'lgan ehtiyoj yo'qolib bormoqda. Har qanday mahsulotni sotib olish uchun hatto oddiy iste'molchi ham uydan chiqmay turib telekommunikatsiya xizmatlarni masofadan xarid qilish imkonini yaratadi. Bu nafaqat o'z shahringiz yoki mamlakatingizda ushbu xizmatlardan foydalanish, balki boshqa mamlakatlardan telekommunikatsiya xizmatlarini buyurtma berish va undan foydalanish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Yangi texnologiyalardan foydalanish ommabopligi tufayli iste'molchilar huquqlarini himoya qilish zarurati ortib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olimlardan Fredrik Hacklin va Christian Linder (2018), "Digital Transformation and the Digitally Extended Enterprise" nomli ilmiy tadqiqotida telekommunikatsiya xizmatlarining raqamli platformalari va ularning iqtisodiy ta'siri haqida muhim tahliliy natijalarni aks ettirib ketgan. Peter Curwen va Jason Whalley (2019)lar esa "Digital Telecommunications Ecosystems" nomli kitobida telekommunikatsiya tarmoqlari, xizmat provayderlari va raqamli platformalar orasidagi o'zgarishlar va qarashlar haqida tushuncha beradi. Fransuz olimi Francis Pereira (2019) esa "Digital Transformation of the Economy: Challenges, Trends, Opportunities" nomli ilmiy maqolasida, raqamli iqtisodiyotning yana bir rivojlanishi bilan bog'liq va MT sohasidagi telekommunikatsiya xizmatlarini o'z ichiga olgan platformalar va ularning roli haqida o'z fikrlarini taqdim etgan. Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne, va Sangeet Paul Choudary lar "Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You" deb nomlangan ilmiy kitoblarida platformalar va ularning iqtisodiy oqimlari, shu jumladan telekommunikatsiya xizmatlari platformalari haqida batafsil tafsilotlar keltirib o'tishgan. "Digital Transformation in Business and Society" – deb nomlangan xalqaro ilmiy loyiha doirasida esa telekommunikatsiya xizmatlari va raqamli platformalari muqobil tahlil qilib va ularning iqtisodiy, ijtimoiy, va siyosiy ta'siri haqida fikrlar ilgari surilgan. 2005 yilda Harald Grubering (2005) "The Economics of Mobile Telecommunications" nomli ilmiy ishida, telekommunikatsiya xizmatlarining iqtisodiy aspektlarini, jumladan MT sohasidagi platformalar va ularning iqtisodiy ta'sirini o'rganishga xizmat qilishi haqida aniq ma'lumotlar aks etgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli platformalar, telekommunikatsiya xizmatlarini mijozlar bilan birlashtirishda, xizmatlarni yanada foydali qilish, mijozlar bilan yaxshi munosabatlarni rivojlantirish va bozorni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu platformalardan foydalanish, kompaniyalarga innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi va bozorni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Jahon bozorlarning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlariga hamohang ravishda O'zbekistonda ham keyingi yillarda telekommunikatsiya xizmatlari bozori jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, respublikamizda ham zamonaviy iqtisodiyotni anglashga nisbatan axborotlashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilimlarga asoslangan yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Bunda Internet va uyali aloqa asosiy komponent bo'lgan yangi axborot kommunikatsiya

texnologiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, axborotning tezkor almashuvi va innovatsion faoliyatlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Axborot kommunikatsiyalar sohasining rivojlanishida global tendensiyalarni ko'rib chiqamiz. Har bir davlatda telekommunikatsion soha boshqaruvi o'z hususiyatlariga ega, ammo raqamli texnologiyalarni paydo bo'lishi va internet tarmog'iga kirish bo'yicha xizmatlarning ommaviy qo'llanilishi bugungi kunda aloqaning har qanday operatori nafaqat mahalliy (mintaqaviy yoki umummilliy), balki telekommunikatsion xizmatlarning jahon bozorida ishlashiga olib keldi.

Bugungi kunda axborot kommunikatsiya sohasida, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan taqdim etilgan texnologik yangiliklarning aksariyati iste'molchilar tomonidan talabga aylandi, shuning uchun xizmatlarga bo'lgan talab taklifga mos keldi. Bugungi kunda bozorning o'zi (talab) ko'p jihatdan turli xil texnologik yangiliklar va o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, bu transport hajmi va xarakterining o'sishiga, shuningdek, iste'molchilarning transportni uzatishning sifat xususiyatlariga bo'lgan turli talablariga javob beradi. (shu jumladan harakatchanlik talablari). Hozirgi vaqtda yo'nalishi va kuchi texnologik omillar bilan belgilanadigan telekommunikatsiya bozorining global tendensiyalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

simtsiz tarmoqlarni yanada rivojlantirish; Internetga keng polosali ulanishni rivojlantirish; IP ilovalarini ishlab chiqish; tarmoqlar va xizmatlarning konvergentsiyasi.


Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, biz ham Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishda oz bo'lsada hissamizni qo'shish maqsadida <https://telekom-xiz.uz> web portalamizni ishlab chiqdik. Ushbu veb portal orqali foydalanuvchilar masofadan turib portalga tashrif buyurib portalda joylashtirilgan telekommunikatsiya xizmatlari turlari bilan tanishishlari mumkin. <https://telekom-xiz.uz> tijorat portali orqali real vaqt rejimida telekommunikatsiya xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyati mavjud. Bunda foydalanuvchi o'zi istagan xizmatni tanlab so'rovnomaga yuborishi va buyurtma berish yoki xizmatdan foydalanishi mumkin. Portalning yana bir asosiy qulayliklaridan biri shundaki portalda to'g'ridan to'g'ri bir vaqtni o'zida bir nechta xizmat turlarini tanlab ulardan foydalanish mumkin.

<https://telekom-xiz.uz> portalida barcha xizmatlar bo'limiga kirilganda Portalda mavjud bo'lgan hozircha 4 ta xizmat turidan foydalanishlari mumkin. Bu uchun ham foydalanuvchi portal orqali ro'yxatdan o'tib yoki oddiygina anketani to'ldirishi orqali biz bilan bog'lanishi mumkin. Bunda portalimiz orqali yana tasdiqlash xabari keladi. So'ng ushbu ma'lumotlar adminlarga yoki telegram botimizga kelib turashadi. Va ushbu so'rovlarni qaysi xizmat turidali aniqlanib shu xizmatni ko'rsatuvchi tashkilot yoki hodimga yo'naltiriladi.

<https://telekom-xiz.uz> portali orqali 4 ta xizmat turlaridan tashqari portalda doimiy ravishda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatuvchilar uchun bo'sh ish o'rinlari vakansiyalar ham joylab boriladi. Portalni elektron tijoratda o'rnini yanada oshirish uchun hamkor tashkilotlar bilan ham bog'lanish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari portalda viloyat hamda Respublika bo'ylab joylashgan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar, muassasalar va korxonolarning joylashuv manzili, bog'lanish uchun telefon raqamlari va manzilning geolokatsiyalari joylashtirilgan.

Demak quyida <https://telekom-xiz.uz> elektron tijorat uchun ishlab chiqilgan portalimizning umumiy strukturasi asosiy imkoniyatlari va uning tashqi ko'rinishi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.


Ushbu oyna <https://telekom-xiz.uz> oynasining asosiy bosh oynasi hisoblanib ushbu oynada quyidagi menyular va bo'limlar mavjud.



1-rasm. <https://telekom-xiz.uz> veb portalining asosiy bosh oynasi

1. Bosh sahifa
2. Yangilik
3. E'lonlar
4. Xamkorlar
5. Bog'lanish
6. Kirish
7. Ro'yxatdan o'tish kabi bo'limlardan iborat.

Bosh sahifa bo'limida portalning umumiy ko'rinishi va bosh sahifadagi ma'lumotlar o'rin olgan.



2-rasm. <https://telekom-xiz.uz> veb portalining o'rta oynasi

Yangiliklar bo'limida telekommunikatsiya xizmatlari turlarining yangi assortimenti va yangi xizmat turlari haqidagi yangiliklar elon qilinadi.

E'lonlar menyusida esa mavjud bo'sh ish o'rinlari va talablar keltirib o'tiladi. Bunda telekommunikatsiya sohasida yoki telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha malakaga ega bo'lgan ishga kirmoqchilar ushbu e'lonlar bilan tanishib o'zlarining rezyumellarini yuborishlari yoki to'g'ridan to'g'ri korxonaga kelib masul xodim bilan uchrashishlari mumkin.


Xamkorlar menyusida esa xamkorlik uchun korxonaga va tashkilotlar hamda xorijiy investrlar uchun asosiy taklif va shartnomalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bog'lanish bo'limida portalda joylashtirilgan mebellar haqida to'liqroq ma'lumot yoki biror bir shaxs ishga kirmoqchi bo'lsa foydalanuvchilar ushbu oynada keltirilgan telefon raqamlardan foydalanib bog'lanishlari mumkin.

Kirish qismida esa yuqorida ta'kidlab o'tilganidek foydalanuvchi yoki buyurtmachi biror bir telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanadigan bo'lsa yoki buyurtma berish istagida bo'lsa, foydalanuvchi portaldan ro'yxatdan o'tishi lozim bo'ladi. Ro'yxatdan o'tish tugallangandan so'ng foydalanuvchi o'zining shaxsiy kabinetiga ega bo'ladi va ushbu kabinetga kirish uchun kirish menyusidan foydalanadi.


Ro'yxatdan o'tish menyusida ushbu menyu orqali foydalanuvchi portalda to'laqonli foydalanishi uchun va telekommunikatsiya xizmatlaridan to'liq foydalanishi uchun ro'yxatdan o'tishi kerak bo'ladi.

Web portalning quyi va yuqori qismida bosh sahifa, yangiliklar, biz haqimizda, FAQ, biz bilan bog'lanish, yangi turdagi telekommunikatsiya xizmatlariga aloqador maqolalar bo'limi mavjud.



3-rasm. <https://telekom-xiz.uz> veb portalining quyi oynasi

Portal hozirgi kunda test rejimida ishlamoqda va portalni kelgusida butun respublika miqyosida telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanuvchilar uchun xamkorlikda ishga tushirish ishlarini amalga oshirish reja qilingan.



4-rasm. So'ngi yangiliklar oynasi

Portalning ushbu oynasida So'ngi yangiliklar menyusi joylashgan bo'lib bunda foydalanuvchi ushbu portalda joylashtirilgan so'nggi yangiliklardan habardor bo'lib boradi.

5-rasm. Tizimga kirish oynasi

Tizimga kirishni amalga oshirish uchun foydalanuvchi oldin ro'yxatdan o'tgan elektron pochta va parolini kiritadi va kirish tugmasini bosadi. Shundan so'ng tizimga kirish amalga oshiriladi. Shaxsiy kabinetga kirgach foydalanuvchi o'zining shaxsiy kabinetiga oxirgi marta ko'rilgan telekommunikatsiya xizmat turlari ular haqida ma'lumotlar, savatcha, buyurtmalar, oxirgi ko'rilgan telekommunikatsiya xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar chiqadi.


Telekommunikatsiya xizmatlari asosida yangi telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar – elektron do'konlarni yaratmoqda, raqobatning kattaligi sababli ularda yangi turdagi xizmatlar turlari paydo bo'lmoqda. Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishning asosiy elementi bo'lib, korxonalar yoki tashkilot o'zining telekommunikatsiya xizmat turlarini internetda sotish va joriy etish xisoblanadi.

Telekommunikatsion xizmatlarni ko'rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma'lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.

AKT sohasiga investitsiyalarni kiritish uchun qulay huquqiy sharoitning ko'rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo'lishini ta'minlash. O'z-o'zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish. Elektron tizimi bo'yicha ta'lim tizimini rivojlantirish. Axborot

texnologiyalarining butun O'zbekiston bo'ylab keng tarqalishini ta'minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi Telekommunikatsiya xizmatlari hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. <https://telekom-xiz.uz> portalining o'ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- Respublika va viloyat miqiyosida sifatli telekommunikatsiya xizmatlari haqida axborot olish tezligi oshadi;
- Xizmat ko'rsatish va kutish vaqti qisqaradi;
- Bepul xizmat ko'rsatish yoki xizmat ko'rsatish haqini bo'lib to'lash imkoniyati mavjudligi;
- Korxonalar axborot texnologiyalarini samarali qo'llash orqali iste'molchilar bilan ochiq munosabat o'rnatish,
- Xizmat ko'rsatishlar to'g'risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot bilan ta'minlash, sotuvning alternativ yo'llarini, misol uchun <https://telekom-xiz.uz> da telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi elektron do'konlar ochish va yaratish imkoni beradi.



6-rasm. <https://telekom-xiz.uz> veb portalining statistika ko'rsatkichlar oynasi

Ushbu oynada ko'rib turganingizdek portal orqali xizmat turlari bir oy ichida qancha xizmat ko'rsatilganligi, mamnun mijozlar soni, hamda hamkorlarning statistik ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish va ularni o'z ichiga olgan raqamli platformalarni amalga oshirish, innovatsiyalarni va iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga olgan yangi yondashuvlarni o'rnatishni talab qiladi. Raqamli platformalar, boshqa sohalar bilan hamkorlikda xizmatlarni yaratish va taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Xulosa o'rnida yana takidlash mumkinki telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishning raqamli platformalar quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi mumkin va quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Raqamli platformalar, telekommunikatsiya xizmatlarini tizimli tarzda taqdim etish va boshqarishga imkon beradi. Bunday platformalar, foydalanuvchilarga shakllantirilgan, innovatsion xizmatlarni qulay va tezroq taqdim etish imkoniyatini beradi. Raqamli platformalar, ko'p tarmoqli xizmatlarni integratsiya qilish va boshqarishda o'zaro bog'liqlikni oshirishda yordam beradi. Bu foydalanuvchilar uchun qulaylik va xizmat sifatini oshiradi. Telekommunikatsiya xizmatlarini o'z ichiga olgan raqamli platformalar, ma'lumotlar

almashish va qo'llashda yuqori darajada integratsiya qilishga imkon beradi. Bu istemolchilarga personalizatsiyalangan va moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etishga olib keladi. Raqamli platformalar, yangi innovatsiyalarni qo'llash, boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilish va yangi xizmatlar yaratishda yordam beradi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE EGIONS." *Conferencea (2022): 128-130.*

Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea (2022): 80-83.*

F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. *Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.*

F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.*

Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1*

Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1*

Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1*

Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1*

Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. *Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1*

Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." *Хоразм Маъмун академияси (2022).*

Francis Pereira (2019). *Digital Transformation of the Economy: Challenges, Trends, Opportunities.* Scientific article.

Fredrik Hacklin va Christian Linder (2018). *Digital Transformation and the Digitally Extended Enterprise* book.

Peter Curwen va Jason Whalley (2019). *Digital Telecommunications Ecosystems.* Online library.

ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." *AGRO ILM (2022).*

Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. *Viznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.*